

## TIBBIY TA'LIM BERISHDA KERATIV YONDASHUV

**Sharapova Dildora Baxtiyarovna**

*TTA "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi*

**Ahmadaliyeva Dilnoza Baxtiyorjon qizi**

*TTA "Tibbiy biologiya" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Muxammadov Zafarali A'zamjon o'g'li**

*TTA "Tibbiy biologiya" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola tibbiy ta'lim berishda kerativ ta'lim berishning o'ziga hos jihatlari ochib berishga, afzalliklari va kreativ o'qitish yondashuvlarini ochib berishga qaratilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Pedagog, kerativlik, g'oya, professional, ko'nikma, kasb, psixologiya.*

**Аннотация:** *В данной статье приведены доводы в пользу раскрытия уникального подхода к творческому обучению в медицинском образовании и выявления творческих педагогических навыков.*

**Ключевые слова:** *Педагог, творчество, идея, профессионал, мастерство, профессия, психология.*

**Annotation:** *This article argues for revealing the unique treatment of creative teaching in medical education, and revealing creative teaching skills.*

**Key words:** *Teacher, creativity, idea, professional, skill, profession, psychology.*

Dunyoda globallashuv sharoitida har bir soha kun sayin o'zgarib, rivoj topib bormoqda. Bu o'zgarishlar ta'limga, o'qishga va ishga kirish jarayoniga va albatta hayot tarziga ham ta'sir qilmay qolmaydi. XXI asrda o'ta yuqori darajada rivojlangan va juda ko'plab an'analarni o'zgartirib yuborayotgan jarayon bu – kerativlikdir.

Kerativlik – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyotlar (mashina, qurilmalar yoki robot) kabilari yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kerativlikdir.

Jamiyat taraqqiyotida yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni o'zlari qiziqqan kasbga bo'lgan intilishlarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu yo'lda jamiyat, davlat bor kuchini berib yoshlarni inson qilib shakllanishga o'z e'tiborini beradi. Chunki yoshlarni kasb egallashlari va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq jarayondir. Yoshlar bu jarayonni boshlaridan o'tkazar ekanlar o'zlari uchun qaysi kasb qiziqarli va kerakli deb belgilab olishi oson kechmaydi. Endigina bolalik davridan kattalik davriga o'sib o'tayotgan farzandlar berilgan tarbiyalarga qarab har xil bo'ladilar. Ulardagi mavjud bo'lgan ruhiy jarayonlar, berilgan tarbiya va bilimlar kasb tanlashda muhim hisoblanishi zarur. Ammo unday ham emas. Chunki ularni o'rab turgan ko'plab katta yoshli insonlar o'z ta'sirlari bilan

xilma-xil maslahatlar bilan kasb tanlashda ikkilanishlarni vujudga keltiradilar. Kasb psixologiyasi o'z oldida turgan muhim kasb bilan bog'liq masalalarni o'rganishda va uni hal etishda o'qituvchi shaxsiga suyanadi. Shuning uchun ham kasb psixologiyasida o'qituvchini yoshlarni kasb tanlashdagi o'rni har doim uning diqqat markazida turadi. Kasb psixologiyasi, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat masalasi, o'qitish va kasbga yo'naltirish kasbiy maslahatlar berish, ularni sinchiklab o'rganish orqali kasbni tanlashdagi psixologik jarayonlar kabi ko'plab masalalarni keng va chuqur o'rganib boradi. Ayni paytda o'qitish sama-ra-dorligini oshirish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlarida bel-gilangan bilim, ko'nikma va mala-kalarni to'la egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, iqtidorli, iste'dodli hamda ayrim fanlarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb vazifalardandir.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomil-lashtirish, o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, DTS va o'quv dasturlarini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali qonuniy asosga ega bo'ldi. Barcha fanlardan yangidan-yangi ta'lim texnologiyalari va interfaol usullar ishlab chiqilib, muntazam moder-nizatsiyalashtirilmoqda. Biz ko'rib chiqayotgan muammolarning dorzarbligi shundan iboratki, umman olganda, kelajakda tibbiyot mutaxassisining kommunikativ kompetentsiya bajarishga imkon beruvchi professional ahamiyatga ega xususiyatdir. Yuqori darajada professional vazifani qabul qilish, yanada kengroq topish o'z-o'zini anglash, shaxsiy va professional o'zini -o'zi anglash imkoniyatlari takomillashtirish .o'z navbatida ,chet tilining kommunikativ kompetentsiyasi talabalar tomonidan faolroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Kerativlik shaxsni rivojlantirish kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda hayoriy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kerativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatik qoidalarni"suq qilib ichib "yuborgan bo'lsangiz ham, insho yarata olmasangiz barchasi samarasizdir. shuning uchun kerativ fikrlash jarayonida tassavur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "tassavur bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlash, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo inson fikrlash jarayonidagi bir xillika odatiylikka barham berishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki har qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar kerativ qarashlarni ilgari surish kerak. Har doim yangicha qarash ,yangicha fikrlashda bo'lishi kerak.Bu hoh tibbiyot sohasi bo'lsin hoh boshqa soha.Insonlardagi boshqacha qarash yangiliklar yaratish ,hayotga bo'lgan qiziqishni ortiradi.Tibbiyot sohasida ham yangi texnologiyalarni joriy qilish,ularni rus tili ingiliz tilida yoshlarga yetkazib berish ularning nafaqat O'zbekiston balki butun dunyo miqyosida keng targ'ib qilishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R.Abdurahmonov Z.E.Abdurahmonova. Kasb psixologiyasi. Darslik
2. Abdusamatov, H., & QURBANOVA, M. (2022). Some social and psychological advice for families who have been destroyed. In Conference Zone (pp. 22-24).
3. Abdusamatov, X. NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLARNING YUZAGA KYELISHINING AYRIM IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
4. Dilbar, M., Lochin, R., Ruxsora, K., & Khasanboy, A. (2019). The Relationship of the Level ff Need for Communication with the Style Features of the Education Manager in Uzbekistan. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 4611-4618.
5. Абдусаматов, Х. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ МИРГАНТОВ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 17.
6. Абдусаматов, Х. У. (2022). ХОРИЖ ОЛИМЛАРИ ТОМОНИДАН МИГРАНТ ОИЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), 254-257.
7. Шамсиев, Ў., & Абдусаматов, Х. (2022). ДАСТЛАБКИ МУЛОҚОТ–ШАХС ШАКЛЛАНИШИНИНГ АСОСИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), 202-207.
8. Baxtiyarovna, S. D. (2022). TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI. Scientific Impulse, 1(3), 444-448.
9. Baxtiyarovna, S. D. (2022). KASBIY FAOLIYATDA JAMOANING O'RNI VA ROLI. Scientific Impulse, 1(3), 444-446.
10. Karimovna, N. Y. (2023). COGNITIVE DISORDERS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 12, 126-131.
11. Ахмедова, М. Т., & Нарметова, Ю. К. (2022). “МУОШАРАТ ОДОБИ” ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРДА УСТОЗ-ШОГИРД МУНОСАБАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 336-340.
12. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(4), 54-60.

13. Zarnigor, N. (2022). RAHBAR PSIXOLOGIYASI VA UNING MEHNATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 121-125.

14. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКЦИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 268-272.

15. Olimjonova, Z. B. Q. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR EMOTSIONAL SOHASI PSIXOFIZIOLOGIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 311-315.